UO‘K 94(575.1)

TURKISTON ASSRDA 1921–1923-YILLARDA AHOLI TARKIBIDAGI MIGRATSION JARAYONLAR

S.S. To‘raxo‘jayev

Maqolada Rossiyaning markaziy guberniyalarida ro‘y bergan ocharchilik natijasida aholining Turkiston ASSRga migratsiyasi, bu jarayonda o‘lka hukumati tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar o‘rganilgan. Shuningdek, o‘lkadagi sovet va partiya tashkilotlari Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridan kelayotgan och-qochoqlarni qabul qilish va zarur mahsulotlar yetkazib berish ishlarini bajarganligi, o‘lka aholisining och aholi vakillariga g‘amxo‘rlik qilganligi, boshpana berganligi, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi mahsulotlari bilan ta’minlaganligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *ocharchilik, guberniya, qochoq, punkt, ko‘chirish boshqarmasi, migratsiya, ko‘chirish, evakuatsiya, komissiya, epidemiya, telegramma, murojaatnoma*.

В статье изучается процесс миграции населения из страдающих от голода центральных губерний России в Туркестанскую АССР, а также меры, предпринятые правительством края в ходе данного процесса. Освещена кропотливая работа советских и партийных органов края по приему беженцев, прибывающих из Поволжья и Предуралья, и обеспечению их необходимыми продуктами. Отмечается, милосердие и сострадание местного населения к голодающим, о предоставлении ими крова, продуктов питания, одежды и другиих необходимых товаров.

Ключевые слова: *голод, губерния, беженец, пункт, переселенческий отдел, миграция, переселение, эвакуация, комиссия, эпидемия, телеграмма, заявление*.

Kirish

Mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy adabiyot va tadqiqotlarda Sovet Rossiyasi bilan Turkiston ASSR o‘rtasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy munosabatlar tarixi yangi uslubiy yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar asosida yoritildi. Xususan, ilmiy-tadqiqot ishlarida 1917–1924-yillarda Turkiston o‘lkasida sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, o‘lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz va oziq-ovqat muammolarini hal yetish masalalari, Turkistonda ro‘y bergan ocharchilikning ayanchli oqibatlari o‘rganildi. Biroq Turkiston o‘lkasiga Volgabo‘yi va Uraloldi hududlaridan ochlikdan aziyat chekkan aholi vakillarining ko‘chib kelishi, ularga o‘lka aholisining beg‘araz yordam ko‘rsatgani, bag‘rikenglik, insonparvarlik namunalari hamda 1922-yil ikkinchi yarmidan boshlab migratsiya tariqasida kelganlarning o‘z vataniga qayta evakuatsiya qilish jarayoni haligacha yaxlit tarzda o‘rganilmadi.

Sovet hokimiyati tomonidan 1921–1922-yillarda Turkiston hududiga Rossiyaning ocharchilik yuz bergan hududlaridan aholi migratsiyasi, ko‘chib kelgan kishilar taqdiri va tarkibi, ijtimoiy ta’minoti, joylashtirilishi kabi masalalar ayrim tadqiqotlarda ma’lum ma’noda o‘rganilgan bo‘lsa-da, hozirga qadar yaxlit tarzda maxsus tadqiq etilmagan. Turkiston o‘lkasida amalga oshirilgan migratsiya masalasi ayrim tarixiy asarlar va tadqiqot ishlarida ma’lum darajada o‘rganilgan. Sovet davri olimlari A.Neverov, Yu.A.Polyakov, G.Fyodorovalar tomonidan Rossiyada 1921–1923-yillarda yuz bergan ocharchilik, uning oqibatlari, ochlarning turli hududlardan panoh topishi, bu vaziyatda RSFSR bilan uning tarkibidagi respublikalar aloqalari, birgalikdagi faoliyati, xususan, o‘lkaga Rossiyaning markaziy guberniyalaridan xalqlar ko‘chirilib keltirilishi va ularni joylashtirishda Turkiston hukumati tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar tarixi ma’lum darajada bayon etilgan [1, 2, 3].

Mustaqillik davrida yaratilgan tadqiqotlarda, jumladan, F.X.Nabiyev, A.N.Rasulov, Q.Rajabov ishlarida Rossiyaning ocharchilik yuz bergan guberniyalaridagi ochlarga Turkiston xalqining ko‘rsatgan yordami va ocharchilikni bartaraf etishdagi faoliyati tarixiylik, xolislik tamoyillari asosida bayon etilgan [4, 5, 6]. Mazkur tadqiqotlarda 1917–1924-yillar Turkiston o‘lkasida sovet hokimiyatining o‘rnatilish jarayonlari, o‘lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy tanglik va oziq-ovqat muammolarini hal etish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, Turkiston o‘lkasida yuz bergan ocharchilikning ayanchli oqibatlari, o‘lkaga Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridan ocharchilikdan azob chekayotgan minglab kishilar migratsiya tariqasida keltirilishi ham yoritilgan.

Ushbu maqolada Turkiston hukumati va xalqining Rossiya hududidan kelgan och aholiga ko‘rsatgan yordami, ocharchilikni bartaraf etishdagi faoliyati, sovet mustamlakachiligi davrida Turkistonga ochlarning evakuatsiya qilinishi, ularning aholi tarkibiga qo‘shilishi hamda immigratsiya jarayonlari mavzuga oid adabiyot va manbalar orqali yoritib beriladi.

Material va usullar

Maqolada qo‘yilgan muammo O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan R-17, R-22, R-25 R-621 raqamli fond materiallari asosida yoritib berildi. Muammoni tadqiq etishda tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi

1921-yili Rossiyaning markaziy guberniyalarida bahor faslida tabiat injiqligi, ya’ni yoz faslida bo‘ladigan issiq aprel oyida boshlanishi ortidan ekinzorlar qurib qolishi, kuzda esa hosilsizlikning yuzaga kelishi ocharchilikni keltirib chiqargan. Buning natijasida Rossiyaning Tula, Kaluga, Oryol, Samara, Orenburg, Saratov, Volgograd guberniyalarida ocharchilik yuz bera boshlagan. Ocharchilik ko‘lami kengaygan sari och aholi soni ham ortib borgan. Ocharchilik yuz bergan hududlarda jami 35 million aholi istiqomat qilardi. Shundan 30 millioni qishloq aholisi bo‘lgan. Ushbu aholining 2 millionga yaqini ochlikdan vafot etgan, 1 million nafar bola esa yetim qolgan edi [7. B. 20]. 1921-yil oxiriga kelib, Tatariston, Boshqirdiston, Ukraina, Qrim va Qozog‘iston hududlari ham ocharchilik girdobiga tushib qolgan. 1921-yili RSFSR Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi qoshida jabrlangan hududlar aholisiga yordam ko‘rsatish maqsadida favqulodda komissiya tashkil etilgan [3. B. 10]. Hukumat rahbarlari kundan-kunga vaziyat yomonlashayotganini, och aholi vakillari soni ortib borayotganini, bu jarayon mamlakat iqtisodiyotiga ham ta’sir etayotganini anglab yetib, ocharchilikka qarshi kurashga jiddiy e’tibor qaratgan. Biroq mamlakatning va ocharchilik ro‘y bergan hududlarning imkoniyatlari bu falokatga qarshi kurashish uchun yetarli emas edi.

Bu muammo mamlakat va partiya oldiga talaygina vazifalarni qo‘ygan. Hukumat rahbarlari birinchi navbatda mamlakat iqtisodiyoti va qishloq xo‘jaligini tiklashga e’tibor qaratgan. Ammo 1921-yilga kelib, sovet hokimiyati oldida yangi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar paydo bo‘lgan. Sanoat korxonalari va qishloq xo‘jaligini tiklash ishlari boshlangan bir vaqtda mamlakatning markaziy mintaqalarida ulkan bir tabiiy ofat – qurg‘oqchilik va hosilsizlik ro‘y berishi vaziyatni izdan chiqarib yuborgan. Ocharchilik natijasida Rossiyaning markaziy va sanoatlashgan hududlaridagi ko‘plab sanoat korxonalari o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lgan. Odamlar ochlik va kasallikdan aziyat cheka boshlagan, ayniqsa, bolalarning och qolishi ortidan o‘lim holatlari ko‘payib ketgan [8. B. 8]. Shu sababli bolsheviklar asosiy e’tiborini ocharchilikka qarshi kurashish va muammolarni hal etish bo‘yicha chora-tadbirlarga qaratgan. Ya’ni, hukumat rahbarlari ocharchilik yuz bergan hududlardagi och qolgan aholini oziq-ovqat, kiyim-kechak va dori-darmon bilan ta’minlash, shuningdek, joylarda umumiy ovqatlanish va tibbiy yordam ko‘rsatish punktlarini tashkil etish, yetim bolalar uchun boshpana topish, aholini xavf ostida qolgan hududlardan evakuatsiya qilish, epidemiyalarga qarshi kurash hamda qishloq xo‘jaligini tiklash kabi ishlarni bajarishga kirishgan.

Sovet Rossiyasi bu ishlarni bajarishda tarkibidagi avtonom respublikalardan foydalangan. Xususan, Turkiston ASSRdagi mavjud iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqib, bolsheviklar o‘lka hududida Rossiyaning iqtisodiy manfaatlarini qondirish uchun o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirgan. Rossiyaning ko‘plab guberniyalarida davom etayotgan ocharchilik va oziq-ovqat muammosi Markazni qiyin vaziyatga solib qo‘ygan, bu vaziyatda favqulodda chora ko‘rilmasa, sovet hokimiyati nazoratni qo‘ldan chiqarib yuborishi mumkin edi. Shuning uchun ham bolsheviklar ichki imkoniyatlarni ishga solishga, xususan, joylardan oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni zo‘rlik bilan tortib olish siyosatini qo‘llashga uringan [9. B. 93].

Butunrossiya Markaziy ijroiya qo‘mitasi (BMIQ) ning 1921-yil 9-mayda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida, Rossiyaning iqtisodiy ahvolini inobatga olib, Oziq-ovqat xalq komissarligiga favqulodda vakolatlar berish zarurligi yuzasidan qaror qabul qilingan. Ushbu yig‘ilish qarorida keltirilgan vakolatlardan kelib chiqib, Oziq-ovqat xalq komissari A.Ye.Badayev 1921-yil may oyi oxirida Toshkent va Samarqand hududlariga keladi, Rossiyaning markaziy guberniyalarida kuchayib borayotgan og‘ir vaziyatni hisobga olib, Rossiyadagi ocharchilik mintaqalari uchun Turkistondan oziq-ovqat yordami tashkil etilishini o‘lka ma’murlari zimmasiga yuklaydi. 1921-yil 12-iyulda esa V.I.Lenin Turkiston MIQ, Turkbyuro va Turkiston

oziq-ovqat xalq komissarligiga telegramma yuborgan, unda “Rossiyaning ocharchilik guberniyalarida oziq-ovqat yetishmayotganligi sababli o‘lka rahbariyati tez fursatlarda Moskvaga 250 ming pud g‘alla yuborishi zarur”ligi aytilgan [10. B. 21]. Bundan ko‘rinadiki, sovet hokimiyati asosiy e’tiborini Markaz manfaatlariga qaratgandi. Shu sababli bolsheviklar Turkiston o‘lkasidan 1920–1921-yillarda 9 mln. 700 ming pud, 1921–1922-yillarda esa 4 mln. pud g‘alla mahsulotini tashib ketgan [11. B. 82]. Vaholanki, bu vaqtda Turkiston aholisining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanish darajasi qoniqarli emas edi. 1921-yil hisob-kitoblariga ko‘ra, Turkistonning 5 mln. 658 ming nafar aholisiga 84 mln. 876 ming pud g‘alla kerak bo‘lgan. Ya’ni, har bir kishiga oziq-ovqat, hayvoni uchun yemish, ekishga urug‘lik hisobidan 15 puddan g‘alla zarurat hisoblangan. Lekin o‘sha vaqtda o‘lkadan yig‘ishtirib olinishi kerak bo‘lgan g‘alla yetishtirilgan hosildan ortiqcha bo‘lmagan. Shunga qaramasdan, Turkiston o‘lkasi ocharchilik hududlariga oziq-ovqat yetkazib berish bo‘yicha RSFSRda yetakchi bo‘lgan. Masalan, 1921-yil dekabrda Orenburgga Bryanskdan 4 ming pud g‘alla, Moskvadan 4 vagon oziq-ovqat mahsulotlari, Vitebskdan 15 vagon qora javdar uni, Semipalatinskdan 30 vagon g‘alla yuborilgan vaqtda Toshkentdan 54 vagon bug‘doy jo‘natilgan [12. B. 15]. RSFSR rahbariyati qurg‘oqchilik domiga tortilgan aholi vakillarini ushbu ofatdan qutqarishning so‘nggi chorasi sifatida ochlarni boshqa hududlarga evakuatsiya qilishga kirishadi. Evakuatsiya qilinuvchilarni qabul qiluvchi hududlar sifatida Turkiston, Sibir va Ukraina mintaqalari tanlab olingan [13. B. 46]. Aslini olganda, 1921-yil may oyidan boshlab Volgabo‘yi, Boshqirdiston va Qirg‘iziston hududlarida ocharchilik azobidan qiynalayotgan yuzlab odamlar o‘zga yurtlarga ketish taraddudiga tusha boshlagan.

RSFSRda aholini favqulodda holatlarda yoki turli sabablarga ko‘ra bir hududdan boshqa hududga ko‘chirish uchun “Aholini evakuatsiya qilish markaziy boshqarmasi” tashkil etilgan. Sovet Rossiyasida 1920-yil yanvarda RSFSR Ichki ishlar Xalq komissarligining Markaziy evakuatsiya bo‘limi tashkil etilgan. Dastlab Markaziy evakuatsiya bo‘limining faoliyatiga asirlar va qochoqlarni o‘z yurtiga qayta evakuatsiya, ya’ni reevakuatsiya qilish, ichki migratsiya jarayonlarini boshqarish, mehnat immigrantlarini vataniga qaytarish kabi vazifalar biriktirilgan. Keyinchalik, 1920-yil 20-fevralda Ichki ishlar Xalq komissarligining maxsus qaroriga ko‘ra, Markaziy evakuatsiya bo‘limi Aholini evakuatsiya qilish markaziy boshqarmasiga aylantirilgan. 1920-yil 20-martda esa Markaziy evakuatsiya bo‘limining mahalliy organlari haqidagi Nizomi ishlab chiqilib, RSFSR Ichki ishlar Xalq komissarligi Markaziy evakuatsiya bo‘limi kichik idoralari saqlangan holda, guberniya va uyezd kabi hududiy evakuatsiya boshqaruvlarini tashkil etish tartibi tasdiqlangan [14. B. 105]. Ana shu tartib asosida Turkiston ASSRda aholini evakuatsiya qilish bo‘yicha markaziy boshqarma, uning bo‘limlari tashkil etildi. O‘lkadagi boshqaruv apparati RSFSR Ichki ishlar Xalq komissarligining Markaziy evakuatsiya bo‘limiga bo‘ysungan va hisobot berib turgan. Turkiston markaziy evakuatsiya boshqarmasi o‘lkaga ko‘chirib keltirilayotganlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, belgilangan joylarga yetkazish va ularni boqishni respublika oziq-ovqat xalq komissarligi bilan birga bajarish, ochlarga mahalliy aholi xonadonlari va maktab-internatlardan boshpana berish, ularga yordam tariqasida yig‘ilgan mahsulotlarni tarqatish ishlari bilan shug‘ullangan [15. B. 453].

O‘zbekiston Respublikasi milliy arxivida saqlanayotgan hujjatlarni o‘rganish davomida sovet bolsheviklari ko‘rsatmasi asosida tashkil etilgan Turkiston ASSRda aholini evakuatsiya qilish markaziy boshqarmasi faoliyatiga oid ma’lumotlar aniqlandi. Arxiv hujjatlarida boshqarmaning bo‘limlari, tarkibi va vazifalari haqida ma’lumotlar bayon etilgan. Turkiston ASSRdagi aholini evakuatsiya qilish markaziy boshqarmasi 1920-yil 15-iyuldagi RSFSR Ichki ishlar komissarligining 3190-sonli qarori asosida tashkil etilgan. RSFSR Aholini evakuatsiya qilish markaziy boshqarmasining 1920-yil 15-iyuldagi 3222-sonli buyrug‘iga binoan, Gabor Iosif Turkiston ASSR aholini evakuatsiya qilish boshqarmasining maxsus komissari, Gustav Shpilmen Turkiston Markaziy ijroiya qo‘mitasi qoshidagi asir va qochoqlar bilan shug‘ullanuvchi Markaziy komissiya komissari etib tayinlangan. Raymond Ganser esa Turkiston ASSR aholini evakuatsiya qilish boshqarmasining Toshkent evakuatsiya punkti boshlig‘ining yordamchisi lavozimiga tayinlangan [16. B. 77].

Turkiston aholini evakuatsiya qilish markaziy boshqarmasi tashkiliy jihatdan 4 ta viloyat va 15 ta tuman bo‘limlaridan iborat bo‘lgan. Shuningdek, boshqarma tarkibida Toshkent shahrida 1100 nafar kishiga va Chernyayevda 1000 nafar kishiga mo‘ljallangan ovqatlantirish, tibbiy yordam ko‘rsatish punktlari tashkil etilgan. 1916-, 1917-, 1918-yillarda Yettisuvdan Xitoyga qochgan qochoqlarni qaytarish bo‘yicha Turkiston maxsus komissiyasining tugatilishi va uning funksiyalari Yettisuv evakuatsiya xizmatiga o‘tkazilishi munosabati bilan viloyatdagi yana 3 ta: Jarkent, Prejevalsk va Lensinsk evakuatsiya punktlari tashkil etilgan [17. B. 116]. Turkistondagi asosiy evakuatsiya punktlarining yangi sharoitga muvofiq tashkil etilishiga barcha shaharlar (Yettisuv bundan mustasno – S.T.) temiryo‘l bo‘ylab joylashganligi sabab bo‘lgan.

Bu tashkilot o‘lkada yuz bergan iqtisodiy qiyinchilik va ocharchilik sharoitida tashkil etilganligi uchun moliyaviy muammolarga duch kelgan. Uning moliyalashtirilishi Markaz tomonidan belgilangan, biroq Markaz kam mablag‘ ajratgan edi. Moliyaviy va mulk resurslari shu qadar zaif ediki, mablag‘siz hech qaysi tashkiliy ishlarni mahalliy aholi yordamisiz bajara olmagan. Bu vaqtda Turkiston ASSRning barcha organlarida mablag‘ yetishmasligi muammosi mavjud edi. Masalan, 1921-yilga oid hisob-kitoblarga ko‘ra, banknotlarning yo‘qligi sababidan Markaz respublika aholini evakuatsiya qilish markaziy komissiyasiga iyul-avgustda 5 million, sentyabrda 10 million pul ajratgan. Bunday kam mablag‘ evaziga boshqarmani yetarlicha shart-sharoit bilan ta’minlash imkoni bo‘lmagan. Shuningdek, epidemiyaga qarshi muassasalarni tashkil qilish uchun pul mablag‘lari umuman to‘lanmagan. Hatto tibbiyot punktlarida kasallar uchun yetarlicha yotoq va ko‘rpa-to‘shaklar berilmagan, ovqatlanish punktlarida esa oshxona jihozlari yetishmagan. Ochlarni tashish va ularga xizmat ko‘rsatish yo‘lida Turkistonda quyidagi tashkilotlar birgalikda chora-tadbirlarni amalga oshirgan: a) ochlikdan aziyat chekayotganlarga yordam berish bo‘yicha markaziy komissiya; b) Turkiston markaziy evakuatsiya boshqarmasi; v) harbiy vakillik va karantin nazorat punktlari; c) bolalarni asrash tashkiloti [18. B.117–118].

1921-yil 21-iyulda Markazning topshirig‘i bilan Turkiston MIQ qoshida “Ochlarga yordam berish markaziy komissiyasi” tashkil etilgan. Mazkur komissiyaning viloyat, uyezd-shahar, qishloq va ovullarda ham bo‘limlari tashkil etilgan bo‘lib, ularning zimmasiga oziq-ovqat mahsulotlarini to‘plash, xarid qilish, tadbirlar, xayriyalar uyushtirish, shu yo‘l orqali yig‘ilgan mahsulotlarni ocharchilik hududlaridagi aholiga jo‘natish vazifasi yuklatilgan. 1921-yil 25-iyulda “Xabarlar” (“Izvestiya”) gazetasida “Ochlarga yordam berish markaziy komissiyasi”ning “Barcha ishchilar, dehqonlar va mehnatkashlarga” deb nomlangan murojaati chop etilgan. Unda Rossiyaning g‘alla yetishtiruvchi hududlarida ocharchilik yuz bergani, 10 mln.dan ortiq aholi vakillari och qolgani, ular orasida qariyalar va bolalar ochlik azobidan vafot etayotgani, guberniyalarning qishloq xo‘jaligi butunlay izdan chiqqani, favqulodda choralar ko‘rilmasa, Sovet Rossiyasi qishloq xo‘jaligi ham izdan chiqishi mumkinligi aytilgan. Shuningdek, turkistonliklar ochlikdan qiynalayotgan guberniyalar aholisiga ko‘maklashishi, ochlar uchun g‘alla, paxta yog‘i, quritilgan meva, kiyim-kechaklarni yig‘ib berishi, to‘plangan mahsulotlarni zudlik bilan jo‘natishi zarurligi haqida chaqiriqlar bayon etilgan [19. B. 36].

Rossiyaning ocharchilik hududlarida odamlarni boqish bilan bog‘liq tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan, hamon iqtisodiy ahvol yomonlashib, oziq-ovqat muammosi kundan-kunga og‘irlashib bordi. Ushbu vaziyatdan kelib chiqib, och aholining bir qismini hosildor hududlarga migratsiya qilish boshlandi. Migratsiya jarayoni boshlanishi munosabati bilan Turkiston MIQ 1921-yil iyul oyida maxsus dekret qabul qilgan. Unga muvofiq, Turkiston o‘z hududiga Rossiyaning ocharchilik hududlaridan ochlarni qabul qilish bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishi zarurligi, bu masala yechimi uchun viloyat, shahar va qishloqlarda hokimiyat vakilligi boshqarmalaridan iborat maxsus “uchlik” tashkil etilishi belgilab berilgan. Turkistonda ochlarga yordam berish markaziy komissiyasining 1921-yil 8-avgustda bo‘lib o‘tgan majlisida maxsus tarzda Markazning ko‘rsatmasi bilan “Rossiyaning ocharchilik yuz bergan guberniyalaridagi aholi vakillarining Turkistonga migratsiyasi” masalasi ko‘rib chiqilgan. Majlis davomida Turkistonda ochlarga yordam berish markaziy komissiyasi va Xalq komissarlari sovetiga Rossiyadan evakuatsiya qilinayotgan ochlarni qabul qilish borasida zudlik bilan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ya’ni o‘lkaga kelayotgan odamlarni uy-joy bilan ta’minlash va joylashtirish kampaniyasini tashkil qilish, ularga oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur narsalarni yetkazib berish, umuman olganda, ochlikdan azob chekib Turkistonga kelayotgan ochlarni qabul qilish, joylashtirishda Turkistonda ochlarga yordam berish markaziy komissiyasi va XKS jiddiy tayyorgarlik ko‘rishi, barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirishi to‘g‘risida qaror qabul qilindi [20. B. 84].

O‘rganilgan manba va arxiv hujjatlariga tayanib, Markazning Turkistonga Rossiya ocharchilik hududlaridan aholini evakuatsiya qilishga bir nechta sabablar asos bo‘lganini aytish mumkin. Xususan, Turkiston Yer ishlari xalq komissarligi tomonidan 1921-yil 23-iyulda RSFSR XKS raisi V.I.Leninga yuborgan ma’lumotnomasida Turkiston respublikasida bu yilgi hosil mo‘l-ko‘l bo‘lgani va o‘lkaning oziq-ovqat mahsulotlarida imkoniyati keng ekani, ocharchilik hududlari aholisiga yordam berishga tayyorligi bayon etilgan. Shuningdek, 1921-yil 27-iyulda V.I.Leninning ko‘rsatma-topshirig‘idan iborat telegrammasiga Turkiston XKS raisi Q.Otaboyev yuborgan javob xatida: “Turkiston hukumati tomonidan g‘allani yo‘nalishli poyezdlarda Rossiyaga yuborish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, 31-iyul va 1-avgust kunlari Samarqanddan tegishli tarzda 24 va 25 vagon g‘alla Rossiyaga jo‘natilmoqda” degan ma’lumot bor edi [21. B.101]. Bundan ko‘rinadiki, Markaz o‘lkaga ochlarni evakuatsiya qilish orqali, Rossiya ochlariga yordam berishda har qanday iqtisodiy qiyinchilik va

muammolarni o‘z tarkibidagi hududlarni jalb etish orqali hal qilishga kirishgan.

Shuningdek, Turkiston MIQ raisi A.Rahimboyev boshchiligida 1921-yil 1-sentyabrda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda o‘lkaga kelayotgan ochlarni qabul qilish uchun Turkistonda ochlarga yordam berish markaziy komissiyasi tarkibida maxsus komissiyani tuzish haqidagi 95-sonli qaror qabul qilinishi ham ochlarning Turkistonga migratsiyasiga asos bo‘lgan. Ushbu qarorda quyidagilar belgilab berildi:

- o‘lkaga migratsiya qilinayotganlarni qabul qilish ishlari Turkistonda ochlarga yordam berish markaziy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin;

- komissiyaning bu yo‘nalishdagi ishlari tezkor va jangovar ahamiyatga ega deb e’tirof etilsin va komissiya tomonidan ishlab chiqilgan barcha topshiriqlarni sovet tashkilotlari navbatsiz qabul qilsin;

- mahalliy ijroiya qo‘mitalari aholi o‘rtasidagi eng faol va mehnatkash insonlarni migratsiya ishlariga jalb qilsin;

- ochlarning Turkistonga migratsiyasi bo‘yicha barcha mas’uliyat va tashkiliy ishlar Ochlarga yordam markaziy komissiyasi raisi zimmasiga yuklatilsin [22. B. 50].

1921-yil 19-oktyabrda Turkiston ASSR Markaziy ijroiya qo‘mitasining Rossiyadagi ochlar migratsiyasi jarayonini tashkil etishga oid 121-sonli yangi qarori qabul qilingan. Unda o‘lkaga ko‘chirilayotganlarni qabul qilish ishlari Turkiston MIQ qoshidagi inson huquqlari bo‘yicha tayinlangan komissiya zimmasiga yuklatilganligi, shuningdek, o‘lka rahbariyati va ushbu komissiya Turkiston mahalliy aholisi orasida ochlarga ko‘mak borasida targ‘ibot va tushuntirish ishlarini olib borishi zarurligi belgilab qo‘yilgan. Chunki Turkistonga ochlar migratsiyasi va ochlarga yordam ishlarini amalga oshirishda o‘lkadagi sovet hokimiyati organlarining chaqiriq va murojaatlari katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu yo‘l bilan aholiga ocharchilik oqibatlarini tushuntirish, o‘lkaga kelayotgan ochlar taqdiriga befarq bo‘lmaslikka chaqirilgan. Ana shunday murojaatlardan biri 1921-yil 25-sentyabrda o‘lka aholisiga yetkazilgan. Bu murojaat Turkiston MIQ raisi A.Rahimboyev va Turkiston XKS raisi Q.Otaboyevlarning imzosi bilan tasdiqlangan edi. Ushbu murojaatda Rossiyaning markaziy guberniyalari va muxtor respublikalarida tabiat injiqligi, qurg‘oqchilik tufayli hosilsizlik yuz bergani, natijada minglab odamlar ocharchilikka uchragani, ular oziq-ovqat yetishmovchiligi ortidan vafot etayotgani, davlat tomonidan ochlarga ko‘rsatilayotgan yordam yetarli bo‘lmayotgani bayon etilgan. Ushbu muammolar yechimida jonbozlik qilish har bir insonning burchi ekani, davlat tomonidan ocharchilik hududi aholisini vaqtincha Ukraina, Sibir va Turkistonga ko‘chirish ishlari boshlangani, Turkistonga kelayotganlarga qardoshlarcha munosabatda bo‘lish kerakligi, ularga jamoat va davlat xo‘jaliklari tomonidan oziq-ovqat, kiyim-kechak, yashash joyi ajratish zarurligi ta’kidlangan [23. B. 67].

Turkistonga ochlar migratsiyasi jarayoni boshlangan bir vaqtda o‘lkadagi matbuot organlari ham mahalliy aholini ochlarga befarq bo‘lmaslikka chorlovchi maqolalari bilan jonbozlik ko‘rsatgan. 1921-yil 9-noyabrda matbuotda “Toshkentga och qolganlarni ko‘chirish” nomli maqola chop etiladi. Unda Rossiyaning markaziy guberniyalaridan 300 nafar kishi jamlangan 1 ta eshelon o‘lkaga kelayotgani, qolgan ochlar ham guruh-guruh bo‘lib sekin-asta yetib kelishi, ularni yaxshi kutib olish, ularga issiq ovqat, boshpana berish kerakligi bayon etilgan. Rossiyaning ocharchilik yuz bergan hududlaridan dastlabki rasmiy migratsiya jarayoni boshlanishi bilan o‘lka rahbariyati tashkiliy jihatdan katta qiyinchiliklarga duch kelgan. Bunga sabab ko‘chiriladiganlar miqdorining juda ko‘pligi hamda evakuatsiya jarayonini tashkiliy jihatdan uyushgan holda amalga oshirilishi bo‘lgan. Turkiston o‘z hududiga 1921-yil avgust va sentyabr oyi boshlarida Volgabo‘yi, Uraloldidan migratsiya qilinayotgan ochlarni qabul qila boshlagan. 1921-yil avgust oyi boshidayoq Turkistonga ocharchilik hududlaridan 6000 nafar aholi vakillari migratsiya qilingan [6. B. 103]. Turkistonga uyushgan holda migratsiya qilinayotganlar dastlab temiryo‘l orqali va keyin suv yo‘li bilan keltirilgan. Migratsiya ishlari shu qadar jadallik bilan boshlanadiki, dastlabki rejaga ko‘ra Turkiston o‘z hududiga Samara va boshqa ocharchilikka uchragan hududlardan bir sutkada 950–1000 nafar atrofida odamlarni qabul qilishi belgilab qo‘yilgan. Migratsiya bilan bog‘liq qiyinchiliklarga qaramasdan, Turkiston o‘z hududiga har kuni minglab odamlarni qabul qilgan.

Xulosa

Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va Markaz tomonidan o‘lkada boshqaruv tizimining yo‘lga qo‘yilishi natijasida o‘lka xalqi Rossiyaning ocharchilik hududlaridagi ochlarni qutqarish ishlariga va ularning Turkistonga migratsiyasiga jalb qilingan. Bu vaqtda Turkiston o‘lkasi juda murakkab qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda edi. Shunga qaramay, o‘lka rahbarlari va mahalliy aholi ochlarga yordam berishning chora-tadbirlarini amalga oshira olgan. Birinchidan, Rossiyaning ocharchilik yuz ber-

gan guberniyalari aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlagan bo'lsa, ikkinchidan, o'sha hududlardan migratsiya qilinganlarni qabul qilgan. Migratsiya jarayoni Turkiston uchun katta qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Chunki Turkiston aholisi ocharchilik (1917–1919-yillar) girdobidan endigina chiqqan va uning oqibatlarini bartaraf etayotgan edi. Biroq Markaz bunga jiddiy e'tibor bermay, Rossiyaning ocharchilik yuz bergan guberniyalaridan minglab kishilarning o'lkaga migratsiyasini amalga oshirgan. Natijada o'lkaning iqtisodiy ahvoli izdan chiqib ketgan. Mana shunday sharoitda Turkiston ASSR nafaqat o'z aholisini, balki migratsiya tariqasida kelgan ochlarni ham boqishiga, kiyintirishiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, Turkiston ASSRdagi barcha tashkilotlar ochlarga yordam berish va migratsiya qilinganlarni qabul qilishda Markaz tomonidan yuborilgan topshiriqlarni bajargan. Nochor ahvolda bo'lgan o'lka aholisi esa Turkistonga migratsiya tariqasida kelgan ochlarga mehr-muruvvat, saxovat va bag'rikenglik namunalari ko'rsatishgan.

Adabiyotlar:

1. *Неверов А*. Ташкент – город хлебный. – Москва-Ленинград: Земля и фабрик", 1927. – 167 с.
2. *Поляков Ю.А*. 1921-й: победа над голодом. – Москва: Политиздат, 1975. – 112 с.
3. *Фёдорова Г*. Всё на борьбу с голодом! // Южный Урал, 1989. – № 16. – С. 9–16.
4. *Набиев Ф.Х*. К характеристике продовольственного положения в Туркестане 1921–1924 годов. // Общественные науки в Узбекистане, 1994. – № 8. – С. 34–48.
5. *Ражабов Қ*. Туркистонда очарчилик оқибатлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2021 йил 29 октябрь. – № 44.
6. *Расулов А.Н*. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар. – Тошкент: Университет, 2005. – 200 б.
7. *Белокопытов В.И*. Лихолетье: Из истории борьбы с голодом в Поволжье 1921–1922 гг. – Казань: Татарское книжное изд-во, 1976. – 168 с.
8. *Зарипов А.Я*. Представительство БАССР в Туркестане (1921–1922). // Проблемы востоковедения, 2021. – № 1(92). – С. 8–15.
9. *Лысенко Ю.А., Омурова Ж.О.* Степной край и Туркестан в условиях политики «военного коммунизма» и ее последствий (1918–1922 гг.) // Безопасность и интеграция в странах азиатского региона, 2018. – № 3. – С. 78–95.
10. *Расулов А., Режаббоев Н.* Туркистонда очларга ёрдам кўрсатиш комиссияси фаолияти. – Фарғона, 2012. – 124 б.
11. Ражабов Қ., Ҳайдаров М. Туркистон тарихи (1917–1924 йиллар). – Тошкент: Университет, 2002. – 167 б.
12. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-29 фонд, 3-рўйхат, 1973-иш, 15-варақ.
13. *Поляков В.А*. Поволжский голод начала 1920-х гг.: к историографии проблемы // Новый исторический вестник, 2005. – № 1(12). – С. 36–49.
14. *Галас М.Л*. Государственно-институциональная и социальная адаптация репатриантов и реэвакуируемых беженцев в России в 1920-е гг. // Власть, 2011. – № 4. – С. 105–108.
15. ЎзМА, Р-621 фонд, 1-рўйхат, 19-иш, 453-варақ.
16. ЎзМА, Р-621 фонд, 1-рўйхат, 19-иш, 77-варақ.
17. ЎзМА, Р-621 фонд, 1-рўйхат, 51-иш, 116-варақ.
18. ЎзМА, Р-621 фонд, 1-рўйхат, 51-иш, 117–118-варақлар.
19. ЎзМА, Р-22 фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 36-варақ.
20. *Нарметов С.* Средней Азии в борьбе против голода в Центральных районах России в 1921–1922 гг. // Известия АН ТССР, 1974. – № 5. – С. 84–90.
21. ЎзМА, Р-25 фонд,1-рўйхат, 48-иш, 101-варақ.
22. ЎзМА, Р-17 фонд, 1-рўйхат, 287-иш, 50-варақ.
23. *Суворов С.А*. Туркестанский экономический район в первые годы НЭПа (1921–1925 гг.). – Ташкент: Фан, 1968. – 207 с.

MIGRATION PROCESSES IN THE POPULATION COMPOSITION IN THE TURKESTAN ASSR IN 1921-1923

Saidmurod S.To‘raxo‘jayev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 7(83). 21-28.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: famine, governorate, fugitive, point, resettlement office, evacuation, migration, re-evacuation, commission, epidemic, telegram, appeal.

This article examines the migration of the starving population to “productive regions” as a result of the famine in the central provinces of Russia, in particular, to the Turkestan ASSR, and the measures taken by the regional government in this process. It also describes how the regional government, despite suffering from economic hardship and the consequences of famine at that time, accepted the starving refugees from the Volga and Ural regions of Russia and supplied them with necessary products, and how the regional population took care of the starving population, generously provided them with shelter and housing, and provided them with food, clothing, and other products. In addition, the literature and research created during the years of independence shed light on the history of political, socio-economic, and military relations between Soviet Russia and the Turkestan ASSR based on new methodological approaches and scientific and theoretical views. In particular, scientific research works created in recent years analyze the processes of establishing Soviet power in the Turkestan region in 1917-1924, the issues of solving the socio-economic crisis and food problems in the region, the tragic consequences of the famine in the Turkestan region, the evacuation of thousands of children suffering from hunger from the Volga and Ural regions to the Turkestan region and the selfless assistance provided to them by the region’s population, valuable information about examples of childishness, tolerance, and humanity, and the process of re-evacuating the brought children to their homeland starting in the second half of 1922. At the same time, the research works created cover issues such as the assistance provided by the Turkestan people to the hungry in Russian territory and their activities in eliminating famine, the evacuation of peoples to Uzbekistan during colonial times, their integration into the population, and the demographic characteristics and factors of the population as a result of immigration processes, and the growth of the population, based on the principles of historicity and objectivity. The difficulties encountered by the Turkestan government in providing food supplies to those who had fled from the famine-stricken regions of Russia and who had been evacuated, as well as the difficulties of involving the people of the region in this process and collecting food taxes from them, are also described. For example, in November 1921, 450 hungry people brought from the Volga region as evacuations to the Namangan district of the Fergana region were provided with food and clothing collected by the local population. As a result, the migration process caused great difficulties for Turkestan. However, the Center did not pay serious attention to this and carried out the migration of thousands of hungry people from the famine-stricken provinces of Russia to the region.

References:

1. Neverov, A. (1927). *Tashkent – gorod hlebnyj* [Tashkent is a city of bread]. Moscow-Leningrad: Zemlya i fabrika.

2. Polyakov, Y.A. (1975). *1921-j: pobeda nad golodom* [1921: Victory over hunger]. Moscow: Politizdat.

3. Fyodorova, G. (1989). *Vsyo na borbu s golodom*! [Everyone to fight hunger!]. *Yuzhnyj Ural*. 16. Pp. 9-16.

4. Nabiyev, F.H. (1994). K harakteristike prodovol’stvennogo polozheniya v Turkestane 1921–1924 godov. [The characteristics of food products were laid in Turkestan in 1921-1924]. *Obshchestvennye nauki v Uzbekistane*. 8. Pp. 34-48.

5. Razhabov, Q. (2021). Turkistonda ocharchilik oqibatlari [Consequences of famine in Turkestan]. *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*. 29 October. No 44.

6. Rasulov, A.N. (2005). *Turkiston va Volgabo‘yi, Uraloldi xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar* [Relations between Turkestan and Volgaboyi, Uralaldi peoples]. Tashkent: Universitet.

7. Belokopytov, V.I. (1976) *Liholete: Iz istorii borby s golodom v Povolzhe 1921–1923 gg* [From the history of the fight against famine in the Volga region 1921-1923]. Kazan: Tatar book publishing house.

8. Zaripov, A.Y. (2021) Predstavitelstvo BASSR v Turkestane (1921-1922). [Representation of the BASSR in Turkestan (1921–1922)]. *Problemy vostokovedeniya*. No 1(92). Pp. 8-15.

9. Lysenko, Y.A., Omurova, Zh.O. (2018). Stepnoj kraj i Turkestan v usloviyah politiki «voennogo kommunizma» i ee posledstvij (1918-1922 gg.) [The Steppe Region and Turkestan under the Policy of War Communism and its Consequences (1918–1922)]. *Bezopasnost’ i integraciya v stranah aziatskogo regiona*. No 3. Pp. 78–95.

10. Rasulov, A., Rejabboyev, N. (2012). *Turkistonda ochlarga yordam ko‘rsatish komissiyasi faoliyati* [Activities of the Commission for Aid to the Hungry in Turkestan]. Farg‘ana.

11. Rajabov, Q., Haydarov, M. (2002). *Turkiston tarixi (1917-1924 yillar)* [History of Turkestan (1917-1924)]. Tashkent: Universitet.

12. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA) [National archive of Uzbekistan. (NA of Uz)]. Fund R-29, List-3, Folding Volume-1973, sheet 15.

13. Polyakov, V.A. (2005) Povolzhskij golod nachala 1920-h gg.: k istoriografii problemy [The Povolzhsky famine of the 1920s: problems of historiography]. *Novyj istoricheskij vestnik*. No 1(12). Pp. 36-49.

14. Galas, M.L. (2011). Gosudarstvenno-institucionalnaya i socialnaya adaptaciya repatriantov i reevakuiruemyh bezhencev v Rossii v 1920-e gg. [State-institutional and social adaptation of repatriates and re-evacuated refugees in Russia in the 1920s]. *Vlast*. No 4. Pp. 105-108.

15. NA of Uz. Fund R-621, List-1, Folding Volume-19, sheet 453.

16. NA of Uz. Fund R-621, List-1, Folding Volume- 19, sheet 77.

17. NA of Uz. Fund R-621, List-1, Folding Volume-51, sheets 116.

18. NA of Uz. Fund R-621, List-1, Folding Volume-51, sheets 117-118.

19. NA of Uz. Fund R-22, List-1, Folding Volume-1, sheet 36.

20. Narmetov, S. (1974). Srednej Azii v bor’be protiv goloda v Central’nyh rajonah Rossii v 1921– 1922 gg. [Central Asia in the fight against famine in the Central regions of Russia in 1921-1922]. *Izvestiya AN TSSR*. No 5. Pp. 84-90.

21. NA of Uz. Fund R-25, List-1, Folding Volume-48, sheet 101.

22. NA of Uz. Fund R-17, List-1, Folding Volume-287, sheet 50.

23. Suvorov, S.A. (1968) *Turkestanskij ekonomicheskij rajon v pervye gody NEPa (1921–1925 gg.)* [Turkestan economic district in the first year NEPa (1921-1925)]. Tashkent: Fan.

Muallif haqida ma’lumot:

TO‘RAXO‘JAYEV Saidmurod Saidvoqqosovich – Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi. saidmohidil@gmail.com

UO‘K 94 (575.1)

O‘ZBEKISTONDA KOLLEKTIVLASHTIRISH NATIJASIDA QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHIGA DAVLAT NAZORATINING O‘RNATILISHI

M.M. Xolmatov

Maqolada O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish natijasida o‘zbek qishlog‘ida kolxoz tuzumining qaror topishi va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi ustidan davlat nazoratining o‘rnatilishi masalasi o‘rganilgan. Kolxozlarning boshqaruv tizimi, ishlab chiqarish munosabatlari, kolxozchilar mehnatiga haq to‘lash tartiblari yoritilgan. Qishloqlardagi sovet boshqaruv organlari faoliyati, MTSlar qoshidagi siyosiy bo‘limlarning kolxozlar boshqaruvidagi ishtiroki hamda sovet hokimiyatining ishlab chiqarish ustidan to‘la nazorati qaror topishi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi, kollektivlashtirish, agrar islohot, kolxoz, sovxoz, MTS, siyosiy bo‘limlar, paxtachilik, qishloq xo‘jaligi arteli, ijtimoiy qatlamlar, dehqon xo‘jaliklari, qishloq sovetlari.*

В статье исследуется становление колхозного строя, что явился результатом коллективизации сельского хозяйства и позволил установить тотальный государственный контроль над сельскохозяйственным производством в Узбекистане. Освещены система управления колхозами, производственные отношения, порядок оплаты труда колхозников. Проанализирована деятельность советских органов управления в кишлаках, участие политических отделов при МТС в управлении колхозами и утверждение полного контроля советской власти над производством.

Ключевые слова: *сельское хозяйство, коллективизация, аграрная реформа, колхоз, совхоз, МТС, политический отдел, хлопководство, сельскохозяйственная артель, социальный слой, крестьянское хозяйство, сельские советы.*

O‘zbekistonda yoppasiga kollektivlashtirish amalga oshirilganidan keyin Sovet davlati yangi tashkil etilgan kolxozlarning faoliyatini doimiy ravishda yo‘naltirib turdi va muvofiqlashtirdi. Davlat hokimiyati organlari ekin maydonlarini, qishloq xo‘jaligi ishlarini amalga oshirish muddatlarini, mahsulot yetkazib berish hajmini va boshqalarni rejalashtirar edi.

Kolxoz amaliyotiga mehnatni tashkil etishning yangi shakllari joriy etildi. Biroq, birinchidan, reja muayyan xo‘jalikning xususiyatlarini hisobga olmas, ko‘pincha mavhum bo‘lar va shu sababli uni bajarish qiyin edi. Ikkinchidan, u kolxozchilarga yetib borishidan avval turli bosqichdagi rahbariyat tomonidan muhokama qilinib, qabul qilinar edi. Shu bois asosiy ishlab chiqaruvchilar tayyorgarliksiz holda qolib, bu ularning faoliyatini rag‘batdan mahrum etardi. Natijada kolxozlar markazlashgan rejalashtirishning muammolariga duch kelardi. Qishloq xo‘jaligi ishlari ma’qul muddatlarda emas, balki rahbariyat tomonidan belgilangan vaqtlarda o‘tkazilardi, ko‘p hollarda dalalarga davlat tomonidan belgilab berilgan, aslida ushbu hududda kam hosil beradigan ekinlar ekilardi. O‘zbekiston sharoitida bu borada paxtachilikni yaqqol misol qilib ko‘rsatish mumkin. Markaziy rahbariyatning talabi bilan respublikaning kam suvli, unumsiz hududlarida ham paxtachilik yo‘lga qo‘yilgan, bunday sharoitda paxta yetishtirish kolxozlarga faqat zarar keltirar edi [1. Б. 110–112].

1930-yil iyun oyida bo‘lgan VKP (b)ning XVI syezdi qaroriga ko‘ra, qishloq partiya tashkilotlarini mustahkamlash vazifasi ilgari surildi va shu asosda O‘zbekistonda ham partiya tizimini qayta qurish boshlandi. 1930-yil 23-iyulda SSSR MIK va XKSning “Okruglarni tugatish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [2. В. 309–310]. Bu amalda milliy respublikalarning partiyaviy-ma’muriy boshqaruvini markazlashtirishni va okrug xodimlarining qariyb 90 foizini rayonlarga ko‘chirishni anglatardi. Partiya byurokratiyasi okrug darajasidan rayon darajasiga pasaydi. Respublika okruglarining minglab xodimi qishloqlardagi MTSlarga, kolxoz, sovxoz va qishloq yacheykalariga partiya ishiga safarbar qilindi [3. Б. 218].

Yuqoridagi qonunga muvofiq okruglarning funksiyalari, moddiy mablag‘ va madaniy vositalari rayon ijroiya komitetlariga berildi, okrug mas’ul xodimlaridan 90 foizi rayonlarga ishga yuborildi. 1930-yil oxirlarida O‘zbekistonda ham okruglar tugatilib, 8 ta qishloq rayoni atrofdagi yirik shaharlarga (Andijon,

Namangan, Qo‘qon, Farg‘ona, Marg‘ilon, Samarqand, Kogon, Buxoro) qo‘shib yuborildi, rayonlarning chegaralari aniqlandi. Respublikadagi 10 ta okrug, 80 ta rayon, 1751 ta qishloq sovetlari o‘rnida mustaqil ma’muriy-xo‘jalik birliklari qilib ajratilgan 9 ta shahar soveti, 73 ta rayon, 1696 ta qishloq sovetlari tuzildi[4. Б. 560].

VKP (b)ning 1931-yil 11-fevralda tasdiqlangan “Kolxozlardagi partiya yacheykasi to‘g‘risidagi Nizom”i yacheykalarni tashkil etishning ishlab chiqarish tamoyilini uzil-kesil mustahkamladi. Kollektivlashtirish boshlanishi bilan qishloq kommunistlari yacheykalar tarkibidan xizmatchilarni amalda siqib chiqardilar. 1931-yil 1-iyulga kelib qishloq yacheykalarida 56,5 foiz kolxozchilar, 1,7 foiz sovxoz ishchilari, 1,1 foiz yakka xo‘jalik dehqonlar, 2,7 foiz ishchilar bor edi [5. B. 80]. Quyi partiya tashkilotlari tarkibini qishloq xo‘jaligiga moslashtirish qishloqda ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va uning muammolari haqida yuqori tashkilotlarni xabardor qilib turish uchun zarur edi. Shu boisdan ham qishloqda partiyaga a’zolikning eng katta o‘sishi 1932-yilga to‘g‘ri keldi.

O‘zbekistonda sovet dehqonlarining yangi ijtimoiy toifa sifatida vujudga kelishida ishchilar sinfi ma’lum darajada rol o‘ynadi. Ishchilar sinfining qishloqqa yordami turli yo‘llar bilan amalga oshirildi. Ishchilar qishloqni “sotsialistik qayta qurish” uchun texnik baza yaratishda faoliyat ko‘rsatdi. Kollektivlashtirish yillarida ishchilar sinfi mehnatkash dehqonlarga amaliy yordam ko‘rsatish uchun o‘zining ilg‘or vakillarini yuborib, qishloqlarni otaliqqa oldi. Faqat 1930-yil bahorgi paxta ekish kampaniyasini o‘tkazishda qatnashish uchun O‘zbekistonga 13 ta ishchi brigada, 18 ta temirchilik korxonasi, 8 ta ko‘chma kinoqurilma (jami 454 kishi) safarbar etildi. Bu brigadalar malakali ishchilar (duradgorlar, temirchilar, slesarlar), siyosiy xodimlar, tibbiyot xodimlari va boshqalardan iborat bo‘lgan [6. B. 57].

Nihoyatda jadallik bilan amalga oshirilgan kollektivlashtirishning birinchi to‘lqini yakunlanganidan so‘ng (1931-yil) e’lon qilingan kolxozlarni tashkiliy jihatdan mustahkamlash jarayoni uzoq va mashaqqatli kechdi. Kolxozlarning rahbarlik markazi sovet yoki boshqaruv bo‘lib, uning raisi aksariyat hollarda yiliga bir marta kolxoz a’zolarining umumiy yig‘ilishida saylanar edi. Kolxoz boshqaruvi tarkibiga rais, yirik kolxozlarda esa tarmoq yoki bo‘lim boshliqlari ham saylanar edi. Kichikroq va uncha aniq tashkil etilmagan kolxozlarda bo‘lim boshliqlarining o‘rniga dala oqsoqoli yoki kolxozning butun ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlik qiluvchi xo‘jalik mudiri bo‘lishi mumkin edi. Kichik kolxozlarda vaziyat nihoyatda soddalashgan bo‘lib, butun rahbariyat bitta raisning qo‘lida jamlangan edi [7. B. 283].

Dastlab tashkil etilgan kolxozlarda qishloqqa tashqaridan, asosan shaharlardan yuborilgan ishchi-yordamchilar oqimi tufayli rais masalasi ko‘pincha juda murakkab bo‘lgan. Masalan, “yigirmabeshmingchilar” sifatida O‘zbekiston qishloqlariga safarbar qilingan ishchi-xodimlar masalasi ham ancha muammoli kechgan. 1930-yil fevralidan 1931-yil yanvariga qadar O‘zbekistonga kelish uchun 458 kishi yo‘llanma olgan, 1931-yil davomida yana 400 kishining respublikaga kelishi ko‘zda tutilgan. Dastlabki etib kelgan 433 kishining 149 tasi Moskvadan, 84 tasi Leningraddan va 200 tasi Ivano-Voznesenskdan edi. Ularning 76 tasi Samarqand, 56 tasi Toshkent, Andijon va Qashqadaryo okruglariga 33 tadan yuborilgan. Kelganlarning 33 nafari darhol respublika markaziy apparatlariga ishga joylashtirilgan [8. B. 8].

O‘zbekistonga yuborilgan “yigirmabeshmingchilar”ning asosiy qismi aslida hayotiy va bilim tajribasi kam, o‘sha davrning soxta va balandparvoz shiorlaridan ilhomlangan shaxslar edi. Ularning ko‘pchiligi tub yerli aholi bilan umumiy til topa olmadilar. Ular mahalliy aholining tili, urf-odati va madaniyatidan, shuningdek, tubjoy aholining qadimiy dehqonchilik an’analaridan tamoman bexabar edilar. Shu bois mahalliy aholi “yigirmabeshmingchilar”ni sovuq qarshi oldi. “25 mingchilar” tantanali ravishda yuborilgan ko‘pgina xo‘jaliklar ularga uy-joy bermagan, shikoyatlariga ham quloq solmagan. Lekin, bunga qaramay, respublika partiya tashkilotining ta’siri bilan yuborilganlarning asosiy qismi qishloq xo‘jaligida rahbarlik lavozimlariga tayinlangan. Jumladan, O‘zbekiston bo‘yicha 139 ishchi kolxozlarga rais, rais o‘rinbosari va kolxoz boshqaruvi a’zoligiga tayinlangan. Rayonlardagi tashkilotlarga rahbarlik lavozimlariga 157 kishi tayinlandi. Biroq rahbarlik lavozimiga tayinlangan kelgindilarning aksariyat qismi o‘z vazifalarini eplay olmay, lavozimini boshqa kasbga o‘zgartirgan yoki kelgan joyiga qaytib ketishga majbur bo‘lgan. Masalan, Qashqadaryo vohasiga yuborilgan V.V.Sosunov borgan joyida bor-yo‘g‘i o‘n kun ishlay olgan, xolos. Shuningdek, “25 mingchilar”dan Obuxov Namanganda sotuvchi, Soldatov va Bayev o‘t o‘chiruvchi, Stepanov hammomda qorovul bo‘lib ishlashga majbur bo‘lgan. Umuman, respublikaga yuborilgan 433 nafar “25 mingchilar”dan faqat 170 tasi kolxozlarda qolgan, xolos [9. B. 357].

1930-yil bahorida kolxozlar tarqalib ketganidan so‘ng, “25 mingchilar”ning ba’zilari o‘zboshimchalik bilan qishloqni tark etib, o‘z ishlab chiqarish joylariga qaytib ketganlar. Qishloqda bo‘lgan paytlarida ular uy-joy va oziq-ovqat bilan ta’minlanishda qiyinchiliklarga duch kelishgan. Mahalliy dehqonlar o‘zlariga begona bo‘lgan odamni rahbar sifatida ko‘rishni istamasdilar, biroq kollektivlashtirishning nihoyatda

qisqa muddatlarida mahalliy aholi vakillaridan rahbarlar tayyorlash uchun respublikada zarur imkoniyat yo‘q edi.

Kolxozlar tashkil etilgan dastlabki kunlardanoq ular rayon bo‘g‘inidagi partiya va sovet organlarining qattiq nazorati ostiga tushdi, bu organlar kolxozlar faoliyatining boshqaruv va ishlab chiqarish strategiyasini belgilab berardi. Partiya-sovet organlari turli vazifalarning bajarilishini tezkor nazorat qilar (asosiy qishloq xo‘jaligi ishlari jadvalini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash rejasini belgilar va hokazo), kolxozlar faoliyatining natijalarini baholardi. Kolxozlar har o‘n kunda yoki hatto har besh kunda yuqori organlarga hisobot topshirishga majbur edi. Bu qog‘ozbozlikning byurokratik maqsadi aniq: mahalliy hokimiyatning obro‘sini mustahkamlash edi. Qog‘oz orqali nazoratdan tashqari, hokimiyat idoralari kolxozlarga turli vakillarini yuborib, bevosita nazoratni ham amalga oshirardi. Vakolatlarning aniq chegaralari yo‘qligi tufayli vakillar ba’zida kolxoz ma’muriyatining vazifalarini ham o‘z zimmasiga olardi. Tashqi nazorat qiluvchi organlar vazifasini qishloq sovetlari va MTS (mashina-traktor stansiyalari) bajarardi.

Qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish yillarida qishloq sovetlarining sovet davlatining qishloqdagi organi sifatidagi roli oshdi. 1930-yil 18-oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston SSRning qishloq sovetlari to‘g‘risida Nizom”da: “Qishloq sovetlarining asosiy vazifasi kollektiv xo‘jaliklar va boshqa kollektiv birlashmalar tashkil qilish yo‘li bilan qishloq xo‘jaligini sotsialistik asosda qayta qurishga rahbarlik qilishdan iboratdir” deb maxsus ta’kidlab o‘tilgan edi. Qishloq sovetlari kolxozlar faoliyatida ishtirok etuvchi hamma muassasa va korxonalar, shuningdek, kolxozlar ishlari haqida vaqti-vaqti bilan hisobotlarni eshitib, kolxozlarning ishlab chiqarish rejalarini ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ularning bajarilishini nazorat qilish huquqiga ega edilar [4. B. 560].

Qishloq xo‘jaligining shu tarzda yaratilgan sotsialistik asosi aslida davlat kapitalizmi tizimini ifodalar edi. Bu tizimda yagona kapitalist rolini davlatning o‘zi bajarardi. Davlat yer egasi bo‘lib qolgan holda, yirik qishloq xo‘jaligi korxonalariga (kolxoz va sovxozlarga) yerlarni foydalanish uchun berardi. Kolxozlar yer uchun har qanday to‘lovdan ozod qilingan bo‘lsa-da, unga nisbatan hech qanday huquqqa ega emasdi: yer istalgan paytda davlat tomonidan qayta taqsimlanishi yoki shunchaki tortib olinishi mumkin edi. Davlat investitsiya manbalarini taqsimlar va ishlab chiqarish rejalarini belgilardi.

Kollektivlashtirish jarayoni mahalliy boshqaruv tizimining byurokratlashuvi va rasmiyatlashuvi bilan birga kechdi. 1931-yildagi Ishchi-dehqon nazorati materiallarida shunday deyiladi: “Rayonlar respublika tashkilotlaridan kelayotgan hujjatlar oqimidan qiyin ahvolga tushib qolgan. Kooperativ uyushmasidan 7 tadan 12 tagacha ko‘rsatma keladi, bu ko‘rsatmalar umuman qisqa emas, ba’zilari bir necha varaqdan iborat” [10. B. 35].

“Kolxozsoyuz” mahalliy tashkilotlarga o‘rtacha 330–350 ta ko‘rsatma yuborgan, bu esa ularni bajarish u yoqda tursin, hammasini o‘qib chiqishga ham imkon bermagan. Hisobotlar shakli juda murakkab edi. Masalan, iste’mol kooperatsiyasi 73 ta hisobot shaklini taqdim etishi kerak bo‘lib, shundan 53 tasi 12483 ta ko‘rsatkichni o‘z ichiga olgan. Rayon sog‘liqni saqlash bo‘limining yillik statistik hisoboti 13 ta shakl va 1000 ga yaqin ko‘rsatkichdan iborat bo‘lib, u yoyilgan holda 22 metr uzunlikdagi qog‘ozga joylashgan. Parranda ittifoqi tuxum tayyorlash jarayoni haqida 100 ta savoldan iborat kundalik hisobot joriy etishi lozim edi. Kundalik hisobotdan tashqari, besh kunlik telegraf, yozma va boshqa turdagi hisobot shakllari ham mavjud edi [11. B. 45-46].

Davlat kolxozlarning boshqaruv qatlamini kambag‘al dehqonlar va batraklar bilan to‘ldirishga intildi. Partiya rahbariyati nazarida, kolxoz rahbarlarining sadoqati ularning ijtimoiy kelib chiqishi bilan uzviy bog‘liq edi. Ya’ni, kambag‘al oiladan chiqqanlik kolxozni muvaffaqiyatli boshqarishning kafolati deb hisoblangan. 1930-yil 1-may holatiga ko‘ra, O‘zbekiston SSR kolxozlari boshqaruvida ishchilar, kambag‘al va batraklar qatlami 68 foizni tashkil etgan [12. B. 114].

Ayni paytda, 1930-yillarda qishloq ma’muriy tizimini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri Markaziy hokimiyatning qishloqdagi rahbarlik lavozimlariga ayollarni tayinlashni qo‘llab-quvvatlashi edi. Ammo amalda bunga erishish qiyin edi, chunki an’anaviy ravishda hokimiyat erkaklarga tegishli bo‘lib, qishloq ayollari rahbarlik qilish tugul, bu davrgacha qishloq xo‘jaligi ishlarida ham qatnashmagan edi. Boshqa bir tomondan, ko‘pchilik dehqonlar va mahalliy rahbarlar ayollarning rahbarlikka ko‘tarilishiga salbiy munosabatda bo‘lishgan. Shuning uchun ham 1930-yillar boshida rahbar lavozimlariga ko‘pincha beva ayollar yoki sobiq batraklar orasidan chiqqan ayollar tayinlangan.

Yoppasiga kollektivlashtirishning dastlabki yillarida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan faqat ayollardan iborat qishloq xo‘jaligi artellarini tashkil etish tajribasini ham yo‘lga qo‘ydilar. 1929-yilda bunday 500 ta artel 14 ming nafar ayolni qamrab olgan edi. 1930-yilga kelib 1665 ta artelda 53 mingga yaqin xotin-qizlar birlashgan, kolxozlar tarkibidagi 1600 ta ayollar brigadalarida esa 34 mingdan ortiq o‘zbek ayollari mehnat qilgan [13. B. 87].

Boshqaruv apparatining xarajatlari endigina oyoqqa turayotgan kolxozlar uchun og‘irlik qilardi.

Kolxozchilar nazarida boshqaruv apparati ularning hisobidan boylik orttirish uchun tashkil etilgandi. Yangi rahbarlar ko‘pincha hokimiyatdan foydalanib, o‘zboshimchalik va shafqatsizlik qilishar, kolxoz mulkiga xuddi o‘z mulkidek munosabatda bo‘lishardi. Dehqonlarga nisbatan “o‘zboshimchalik” dehqonlarning shikoyatlari va hokimiyatga yozgan arizalarining asosiy mavzusiga aylangan edi. Bu vaziyat faqatgina rahbarlarning ma’lumot va madaniy saviyasi bilan emas, balki qisman ularning og‘ir ish sharoiti bilan ham bog‘liq edi [14. B. 167].

Umuman, kolxoz ma’muriyatining xatti-harakatlarida yoppasiga kollektivlashtirish va quloqlashtirish davrida yaqqol namoyon bo‘lgan dehqonlar va hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlarning avtoritar an’anasi davom etardi. Bu usulda markaziy hokimiyat mahalliy hokimiyatni qattiqroq nazorat qilish imkoniga ega bo‘lardi.

Kolxozlar qurilishining birinchi bosqichida partiya ularga o‘z jamoat mulkini mustahkamlash va rivojlantirishda davlat yordami ko‘rsatishning o‘sha davr uchun eng maqsadga muvofiq shaklini – mashina-traktor stansiyalari (MTS)ni tashkil etishni ilgari surdi, MTSlar qisqa vaqt ichida butun qishloq xo‘jaligini texnika bilan ta’minlashda va kolxoz tuzumini mustahkamlashda muhim omil vazifasini bajardi.

MTSning asosiy vazifasi kolxozlarga xizmat ko‘rsatishdan iborat edi. VKP(b) Markaziy qo‘mitasining 1930-yil 29-dekabrdagi «“Traktortsentr”ning 1931-yilga mo‘ljallangan ishlab chiqarish dasturi to‘g‘risida»gi qarorida ta’kidlanishicha, MTS timsolida Sovet davlati tomonidan yirik kollektiv qishloq xo‘jaligini yuqori texnik asosda tashkil etishning samarali shakli aniqlangan va ommaviy tajribada sinovdan o‘tkazilgan. Bunda kollektiv xo‘jaliklarni barpo etishda kolxoz ommasining tashabbuskorligi proletar davlatining tashkiliy-texnik yordami va rahbarligi bilan eng to‘liq uyg‘unlashtirilganligi qayd etilgan edi [15. B. 347].

MTSlar qoshida va sovxozlarda tashkil etilgan siyosiy bo‘limlar partiyaning kolxoz qurilishiga siyosiy va xo‘jalik rahbarligini kuchaytirishda nazorat organi bo‘lib qoldi. Siyosiy bo‘limlarni tuzish haqidagi qaror VKP(b) Markaziy komitetining 1933-yil yanvar plenumida qabul qilingandi. Qarorda “MTS va sovxoz siyosiy bo‘limlari, bir tomondan, kolxoz va sovxozlarda ommaviy-siyosiy ishlarni kuchaytirishga, ikkinchi tomondan, kolxoz va sovxozlarni tashkiliy-xo‘jalik jihatidan mustahkamlab, ular oldiga qo‘yilgan vazifalarni, ya’ni ekin maydonlarining hosilini oshirish, chorva mollarini parvarish qilish, kuzgi va bahorgi ekin ishlarini o‘z vaqtida o‘tkazish, hosilni yig‘ib-terib olishni uyushtirish, kolxozchilarning va sovxozlarning davlat oldidagi barcha majburiyatlarini muddatidan kechiktirmay va to‘la bajarishlarini amalga oshirish vazifalarini hal qilish bo‘yicha MTS va sovxozlar olib borayotgan xo‘jalik-texnika ishlariga yordam berishlari kerak” [16. B. 24] deyilgan edi.

1933–1934-yillarda respublikadagi MTSlar qoshida 70 ta, sovxozlar qoshida 30 ta siyosiy bo‘lim tashkil qilindi. VKP(b) Markaziy komiteti siyosiy bo‘limlarda ishlash uchun RSFSR va Ukrainadan 500 dan ziyod partiya xodimlarini O‘zbekistonga yubordi [4. B. 617]. 1933–1934-yillarda 46 ta siyosiy bo‘lim ish olib borayotgan rayonlarda 8 mingga yaqin “quloq-boylar va boshqa dushman unsurlar” kolxozlardan haydaldi.

Qishloq xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlash va kolxoz faollarini rahbarlik lavozimlariga ko‘tarishda siyosiy bo‘limlarning roli katta bo‘ldi. 1934-yil yanvar-fevral oylarida respublikadagi MTS siyosiy bo‘limlari qoshida kolxoz partiya yacheykalari sekretarlari, xotin-qizlar bilan ishlovchi xodimlar, brigadirlar, suvchilar tayyorlaydigan kurslar tashkil qilindi. 1933-yilda 22 ta siyosiy bo‘limdagi 3 mingdan ziyod kishi kolxoz va sovxozlarda rahbarlik vazifalariga tayinlandi. Bundan tashqari, 1933–1934-yillarda siyosiy bo‘limlar qoshida tashkil etilgan qisqa muddatli kurslarda 20 mingdan ortiq traktorchilar, haydovchilar va 1000 ga yaqin mexaniklar tayyorlandi. Faqat 1933-yilda respublikadagi 22 ta MTS siyosiy bo‘limlari orqali 3 mingga yaqin kishi qishloq xo‘jaligidagi turli vazifalarga, xususan, ulardan 555 nafari kolxoz raisi lavozimiga ko‘tarildi [17. B. 416].

Siyosiy bo‘limlar kolxozlarda mehnatni tashkil etish, brigada va zvenolar tuzish, mehnatga to‘g‘ri haq to‘lash, dangasalikka qarshi kurashish, mehnat intizomini mustahkamlash kabilarga alohida e’tibor qaratgan.

Kolxozlarni mustahkamlash ularni “sinfiy yot unsurlardan tozalash”da deb hisoblandi. Ya’ni, bunga ko‘ra, kolxozlar tarkibidagi “boy-quloq unsurlar, savdogarlar, dangasalar” kolxozlardan chiqarib tashlandi. Masalan, Shahrixon rayonidagi Lenin nomli kolxozdan 15 ta xo‘jalik, kolxoz idoralaridan esa uch kishi chiqarib tashlandi; “Besh yillik” kolxozidan rais va 22 ta xo‘jalik, “O‘zbekiston” kolxozidan 14 ta xo‘jalik chiqarildi. Kolxozlardan chiqarilgan “boy-quloq unsurlar” boshqa rayonlarga surgun qilindi [18. B. 45].

1934-yilning oktyabr oyi oxirlarida Moskvadan O‘zbekistonga VKP(b) Markaziy komitetining V.V.Kuybishev va N.K.Antipov boshliq brigadasi keldi. Brigadaning asosiy vazifasi kolxoz, sovxoz va qishloq sovetlarini “sinfiy dushmanlardan tozalash” edi. Brigadaning sa’y-harakatlari bilan 1934-yil noyabr-dekabr oylarida kolxozlarda 1303 nafar quloq, 493 nafar savdogar, 199 nafar ruhoniy, 40 nafar sobiq amir amaldorlari aniqlanib, ularga turli jazolar belgilandi [19. B. 355–356].

O‘zbekistonda yangi tashkil etilayotgan kolxozlarda paxta yetishtirish uchun harakatlar birinchi besh yillikning uchinchi yilida (1930) juda keng tus oldi. Partiya va hukumat respublikada paxtachilikni rivojlantirish uchun ko‘rgan asosiy chora va tadbirlar paxta maydonlarini kengaytirish, hosil unumdorligini oshirish, kolxozlarni tashkiliy-xo‘jalik jihatidan mustahkamlash, kolxoz ishlab chiqarishida, yakka xo‘jaliklarda sotsialistik musobaqa va zarbdorlikni keng ommalashtirishdan iborat bo‘ldi.

O‘zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishda VK-P(b) MKning 1929-yil 18-iyuldagi “Bosh paxta komiteti (“Glavxlopkom”) faoliyati to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qarorda shunday deyilgan edi: “Ittifoqda paxtachilikni rivojlantirish joriy besh yillikda paxta maydonlarini kengaytirish va paxta hosildorligini oshirish uchun barcha imkoniyatlarni maksimal darajada safarbar etish yo‘nalishida borishi lozim. Besh yillik oxiriga kelib, Ittifoq to‘qimachilik sanoati nafaqat chet eldan keltirilayotgan paxtadan xalos bo‘lishi, balki to‘qimachilik sanoatini yanada kengaytirish uchun zarur zaxiraga ega bo‘lishi kerak” [20].

O‘zbekiston Sovet Ittifoqining asosiy paxta yetishtiruvchi hududi sifatida ushbu qarorni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi zarur edi. Shu bois O‘zSSR xalq xo‘jaligini rivojlantirishning besh yillik rejasida 1932-yilga kelib respublikada paxta ekiladigan maydonlarni 990 ming gektarga yetkazish, ya’ni 1928-yilga nisbatan 89 foizga oshirish ko‘zda tutilgan edi.

Qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish natijasida qishloqlardan boy-badavlat aholi, o‘rtahol aholi va faqat natija uchun jon kuydiruvchi qishloq faollari butunlay yo‘q qilib yuborildi. Qishloqlarda kolxozlarga majburan kiritilgan va o‘z faoliyatining yakuniy natijasi haqida mutlaqo qayg‘urmaydigan odamlargina qoldi. Bu holat kolxozlar ishlab chiqargan mahsulotlarning katta qismini davlat o‘ziga olib qo‘yishi bilan bog‘liq edi. Dehqonlar mahsulotni qancha ko‘p yetishtirmasin, davlat deyarli hammasini tortib olishini yaxshi tushunardi.

Kolxozchilar o‘z mehnatlari evaziga “mehnat kuni” deb ataluvchi haq olishardi. Muammo shunda ediki, kolxozlarda pul deyarli yo‘q edi. Shu sababli dehqonlarga pul o‘rniga mahsulot berilardi. Bu tendensiya faqat 1960-yillarga kelib o‘zgardi. Kollektivlashtirish jarayoni dehqonlarga faqat tirikchilik qilishga yetadigan darajadagi mahsulotlar berish bilan kechdi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Sovet Ittifoqida qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish yillarida pasport berish jarayoni ham amalga oshirilgan bo‘lib, dehqonlarga pasport berilmagan. Natijada dehqonlar hujjatlari bo‘lmagani uchun shaharga borib yashay olmasdilar. Amalda odamlar o‘zlari tug‘ilgan joyga bog‘lanib qolishgan edi.

Davlat mamlakatni sanoatlashtirish masalasini birinchi o‘ringa qo‘yib, kolxozlarning iqtisodiy samaradorligi va ularda mehnat qilayotgan dehqonlarning manfaatlari haqida deyarli qayg‘urmadi. Kolxozlar amalda qattiq ma’muriy nazorat ostida bo‘lib, bu asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini majburan davlatga yetkazib berishda namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, kolxozlar o‘z xarajatlarini o‘zlari qoplash tamoyili asosida faoliyat yuritardi. Bu esa olingan foyda, aniqrog‘i, yetishtirilgan mahsulotning asosiy qismi davlatga topshirilgandan keyin qolgan qismi kolxozchilar o‘rtasida taqsimlanganini anglatadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tayyorlash majburiyati juda yuqori bo‘lgani sababli kolxozchilar ko‘pincha o‘z mehnatlari evaziga hech narsa ololmasdilar.

Davlat nazorati ostida nafaqat kolxoz va sovxozlar, balki kolxozchilarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari ham bo‘lgan. 1930-yillarning o‘rtalarida aholi shaxsiy xo‘jaliklarining umumiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdagi ulushi quyidagicha edi: kungaboqar – 13%, kartoshka – 36%, chorva va parranda – 30%, sut – 34%, tuxum – 83%, jun – 19% [21. B. 118]. Yollanma mehnatning taqiqlanganligini, bunday yordamchi xo‘jaliklarda texnikaning yo‘qligini va natijada mehnat unumdorligining yetarlicha past ekanligini hisobga olgan holda, davlat 1920–1930-yillarda qishloqdan “ortiqcha” oziq-ovqat mahsulotlarini olib qo‘yishni izchil davom ettirganini ta’kidlash mumkin.

Umuman, 1930-yillarning boshi kolxozlar uchun tashkiliy shakllarni izlash davri bo‘ldi. Bu borada ilgari mavjud bo‘lgan xo‘jalik amaliyotlari muhim rol o‘ynadi. Biroq kolxozchilarning o‘z mehnati natijalaridan mahrum qilinishi ularga jiddiy zarba berdi. Buning natijasida dehqonlar mehnatidan foydalanishda samarasizlik paydo bo‘ldi, sun’iy ravishda ishchi kuchi tanqisligi yuzaga keldi, mehnat intizomi juda pasayib ketdi. Kolxozchilar o‘rtasida ham shaxsiy, ham jamoaviy ijtimoiy boqimandalik va iste’molchilik kayfiyatlari keng tarqaldi. Kolxozlar iqtisodiy samarasizlik va istiqbolsizlik namunalarini ko‘rsata boshladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA) R-90-fond, 5-ro‘yxat, 789-ish.
2. Собрание законов и распоряжений Рабоче-Крестьянского Правительства СССР за 1930 г. Часть 2. Отдел первый. – Москва: Управление делами СНК СССР, 1931. – 587 с.
3. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925–1985). В 4-х томах. Том I. 1925–1937. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – 726 с.
4. Ўзбекистон ССР тарихи. IV томлик. 3-том: Улуғ Октябрь Социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм қуриш (1917–1927 йиллар). Бош таҳрир ҳайъати: Р.Аминова. – Тошкент: Фан, 1971. – 714 б.
5. Состав ВКП(б) в цифрах. Вып. 11. Динамика основных показателей роста партии за 1930 г. и первое полугодие 1931 г. – Москва: Парт. Издательство, 1932. – 96 с.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви (ЎзР ПАА), 58-фонд, 5-рўйхат, 796-иш.
7. История крестьянства СССР. История Советского крестьянства. Советское крестьянство в период социалистической реконструкции народного хозяйства. Конец 1927–1937. / Отв. ред. И.Е.Зеленин. Том 2. – Москва: Наука, 1986. – 448 с.
8. *Саидов И*. “Йигирмабешмингчилар” кимлар эди? // Фан ва турмуш, 1992. – № 2. – Б. 7–9.
9. *Шамсутдинов Р., Каримов Ш.* Ватан тарихи (Ўзбекистон шўролар истибдоди даврида). Иккинчи китоб. Иккинчи қисм. – Андижон, 1998. – 560 б.
10. Фарғона вилоят давлат архиви (Фарғона ВДА), 1127-фонд, 1-рўйхат, 574-иш.
11. ЎзМА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 601-иш.
12. ЎзМА, Р-90-фонд, 6-рўйхат, 282-иш.
13. ЎзМА, Р-196-фонд, 1-рўйхат, 203-иш.
14. *Аксененок Г.А.* Колхозное право. – Москва: Гос. изд-во юридической литературы, 1950. – 296 с.
15. Коллективизация сельского хозяйства. Важнейшие постановления Коммунистической партии и Советского правительства. 1927–1935. – Москва: Изд-во АН СССР, 1957. – 575 с.
16. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК (1898–1986). Том 6. 1933–1937. – Москва: Политиздат, 1985. – 431 с.
17. Очерки истории коллективизации сельского хозяйства в союзных республиках. Сборник статей. Под ред. В.П.Данилова. – Москва: Госполитиздат, 1963. – 560 с.
18. ЎзМА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 618-иш.
19. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқалар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.
20. Постановление ЦК ВКП(б) от 18 июля 1929 года «О деятельности Главхлопкома» // Известия ЦК ВКП(б), № 23-24 от 25 июля 1929 г.
21. *Зима В.Ф*. Голод в СССР 1946–1947 годов: происхождение и последствия. – Москва: РАН, 1996. – 265 с.

THE ESTABLISHMENT OF STATE CONTROL OVER AGRICULTURAL PRODUCTION AS A RESULT OF COLLECTIVIZATION IN UZBEKISTAN

M.M. Kholmatov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 7 (83). 29-36.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: agriculture, collectivization, agrarian reform, collective farm, state farm, MTS, political departments, cotton growing, agricultural artel, social strata, peasant farms, rural Soviets.

After the implementation of mass collectivization in Uzbekistan, the Soviet state continuously directed and coordinated the activities of the newly established collective farms. State authorities planned the sown areas, scheduled the timing of agricultural work, determined the volume of product deliveries, and managed other related aspects.

According to the decision of the XVI Congress of the All-Union Communist Party (Bolsheviks) in June 1930, the task of strengthening rural party organizations was put forward, and on this basis, the restructuring of the party system began in Uzbekistan as well. On July 23, 1930, the Central Executive Committee and the Council of People's Commissars of the USSR adopted a resolution «On the Abolition of Districts.» This effectively meant the centralization of party-administrative management in the national republics and the relocation of almost 90% of the district personnel to the regions.

The center of the collective farm's leadership was the Soviet or the board, the chairman of which, in most cases, was elected once a year at the general meeting of collective farm members. A chairman was elected to the collective farm board, and in large collective farms, heads of branches or departments were also elected. In smaller and less clearly organized collective farms, instead of department heads, there could be a field elder or a head of the household, managing the entire production activity of the collective farm.

From the very first days of their establishment, collective farms fell under the strict control of party and Soviet bodies at the district level. These bodies determined the management and production strategies of the collective farms' activities. Party-Soviet organs exercised operational control over the implementation of various tasks (such as setting schedules for major agricultural work and plans for agricultural product procurement, etc.) and evaluated the results of the collective farms' activities.

During the years of agricultural collectivization, the role of village Soviets as organs of the Soviet state in rural areas increased. Village Soviets had the right to periodically hear reports from all institutions and enterprises involved in collective farm activities, as well as from the collective farms themselves, regarding their work. They also had the authority to review, approve, and monitor the implementation of collective farms' production plans.

The political departments established at Machine Tractor Stations (MTS) and state farms became the controlling body for strengthening the party's political and economic leadership in collective farm development. The decision to create these political departments was made at the January 1933 Plenum of the Central Committee of the All-Union Communist Party (Bolsheviks). In 1933-1934, 70 political departments were organized under the MTSs and 30 under the state farms in the republic.

References:

1. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA) [National archive of Uzbekistan (NA of Uz]. Fund R-90, List 5, Case 789.

2. (1931) *Sobranie zakonov i rasporyajeniy Raboche-Krestyanskogo Pravitelstva SSSR za 1930 g*. Chast 2. Otdel pervyy [Collection of Laws and Orders of the Workers' and Peasants' Government of the USSR for 1930 Part 2. The first department]. Moscow: Upravlenie delami SNK SSSR.

3. (1987) *Kommunisticheskaya partiya Uzbekistana v rezolyusiyah i resheniyah syezdov i plenumov SK (1925-1985)* [The Communist Party of Uzbekistan in the resolutions and decisions of the congresses and plenums of the Central Committee (1925-1985). In 4 volumes. Vol. I. 1925-1937. Tashkent: Uzbekistan.

4. (1971) *O'zbekiston SSR tarixi*. To'rt tomlik. Uchinchi tom. Ulug' Oktyabr Sotsialistik revolyusiyasining g'alabasi va O'zbekistonda sotsializm qurish (1917-1927-yillar) [History of the Uzbek SSR. Four volumes. Vol. 3. Victory of the Great October Socialist Revolution and the construction of socialism in Uzbekistan. 1917-1927]. Tashkent: Fan.

5. (1932) *Sostav VKP(b) v sifrah*. Vyp. 11. Dinamika osnovnyh pokazateley rosta partii za 1930 g. i pervoe polugodie 1931 g. [The Composition of the VKP (b) in Figures. Issue 11. Dynamics of the Party's Key Growth Indicators for 1930 and the First Half of 1931]. Moscow: Part. Izdatelstvo.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi (O'zR PAA) [Archive of the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan (AAPRUz)], Fund 58, List 5, Case 796.

7. Zelenin, I.E. (ed.) (1986). Istoriya krestyanstva SSSR [History of the Peasantry in the USSR]. In: *Istoriya Sovetskogo krestyanstva. Sovetskoe krestyanstvo v period sotsialisticheskoy rekonstruksii narodnogo hozyaystva*. Konets 1927-1937. [History of the Soviet Peasantry The Soviet Peasantry During the Period of Socialist Reconstruction of the National Economy. Late 1927-1937]. Vol. 2. Moscow: Nauka.

8. Saidov, I. (1992). “Yigirmabeshmingchilar” kimlar edi? [Who were the ‘Twenty-five Thousanders’?]. *Fan va turmush*. No 2. Pp. 7-9.

9. Shamsutdinov, R., Karimov, Sh. (1998) *Vatan tarixi. O‘zbekiston Sho‘rolar istibdodi davrida*. [History of the Homeland: Uzbekistan During the Soviet Oppression]. Second Book. Part II. Andijan.

10. Farg‘ona viloyat davlat arxivi [Fergana Regional State Archive], Fund 1127, List 1, Case 574.

11. NA of Uz. Fund R-837, List 32, Case 601.

12. NA of Uz. Fund R-90, List 6, Case 282.

13. NA of Uz. Fund R-196, List 1, Case 203.

14. Aksenenok, G.A. (1950). *Kolhoznoe pravo* [Collective farm law]. Moscow: Gosudarstvennoe izdatelstvo yuridicheskoj literatury.

15. (1957) *Kollektivizatsiya selskogo hozyaystva. Vajneyshiye postanovleniya Kommunisticheskoy partii i Sovetskogo pravitelstva. 1927-1935* [Collectivization of agriculture. The most important resolutions of the Communist Party and the Soviet government. 1927-1935]. Moscow: Publishing House of the USSR Academy of Sciences.

16. (1985) *KPSS v rezolyusiyah i resheniyah syezdov, konferensiy i plenumov SK (1898-1986)* [The Communist Party of the Soviet Union in Resolutions and Decisions of Congresses, Conferences, and Plenums of the Central Committee (1898-1986)]. Vol. 6. 1933-1937. Moscow: Politizdat.

17. Danilov, V.P. (ed.) (1963). *Ocherki istorii kollektivizatsii selskogo hozyaystva v soyuznyh respublikah* [Essays on the History of Collectivization of Agriculture in the Union Republics]. Collection of articles. Moscow: Gospolitizdat.

18. NA of Uz. Fund R-837, List 32, Case 618.

19. Jo‘rayev, M., Nurullin, R., Kamolov, S. (2000). *O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida* [New History of Uzbekistan. Book 2. Uzbekistan during the period of Soviet colonialism]. Tashkent: Sharq.

20. (1929) Postanovlenie CK VKP(b) ot 18 iyulya 1929 goda «O deyatelnosti Glavhlopkoma» [Resolution of the Central Committee of the All-Union Communist Party (Bolsheviks) of July 18, 1929 ‘On the Activities of the Main Cotton Committee]. *Izvestiya SK VKP(b)* [Messages of the Central Committee of the All-Union Communist Party (Bolsheviks)]. No. 23-24, of July 25.

21. Zima, V.F. (1996) *Golod v SSSR 1946-1947 godov: proishojdeniye i posledstviya* [1946-1947 Famine in the USSR: Origins and Consequences]. Moscow: RAN.

Muallif haqida ma’lumot:

XOLMATOV Mo‘ydin Muxtorovich – Farg‘ona davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi. E-mail: muydin_kholmatov2000@mail.ru